Kalit so'zlar: kichik biznes, sanoat, infratuzilma, mintaqaviy rivojlanish, institutsional qo'llab-quvvatlash.

Abstract: The article explores the issues of supporting small businesses and developing their infrastructure within regional industries. It analyzes the organizational, economic, and institutional conditions necessary for the growth of small enterprises. Particular attention is paid to the role of small business in the modernization of regional industries, the importance of infrastructure provision, and the factors contributing to efficiency. The research results are aimed at developing practical recommendations to ensure sustainable growth of small businesses in the regional industrial system.

Key words: small business, industry, infrastructure, regional development, institutional support.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы поддержки малого бизнеса и формирования его инфраструктуры в промышленности регионов. Анализируются организационные, экономические и институциональные условия, необходимые для развития деятельности субъектов малого предпринимательства. Особое внимание уделено роли малого бизнеса в процессе модернизации региональной промышленности, значению инфраструктурного обеспечения и факторам достижения эффективности. Результаты исследования направлены на разработку практических предложений по обеспечению устойчивого роста малого бизнеса в региональной промышленной системе.

Ключевые слова: малый бизнес, промышленность, инфраструктура, региональное развитие, институциональная поддержка.

KIRISH

So'nggi yillarda bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, mintqa sanoatida kichik biznes subyektlari ishlab chiqarish hajmining kengayishi, aholining bandligini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni amaliyotga joriy etish orqali iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va uning infratuzilmasini shakllantirish masalalari nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Mintqaviy sanoat tizimida kichik biznesni rivojlantirish ko'p qirrali jarayon bo'lib, u tashkiliy, iqtisodiy va institutsional omillar bilan uzviy bog'liq. Bir tomondan, kichik biznes subyektlari uchun qulay muhit yaratish raqobatni kuchaytirib, sanoatning tarkibiy o'zgarishlariga olib keladi; ikkinchi tomondan, ishlab chiqarish



infratuzilmasining rivojlanishi – transport-logistika tizimi, energetika va axborot-kommunikatsiya tarmoqlari, texnoparklar va klasterlarning shakllanishi – ularning samarali faoliyat yuritishini ta'minlaydi.

Shuningdek, kichik biznesni qo'llab-quvvatlashning institutsional mexanizmlari – kredit va soliq imtiyozlari, subsidiya va grant dasturlari, davlat-xususiy sheriklik loyihalari – sanoat sohasida kichik tadbirkorlikning barqaror o'sishini ta'minlashda alohida o'rin egallaydi. Ayniqsa, hududiy sanoatni modernizatsiya qilish jarayonida kichik biznesning o'zgaruvchan bozor talablariga tez moslasha olish qobiliyati uni innovatsion rivojlanishning asosiy kuchlaridan biriga aylantirmoqda.

Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolada mintaqa sanoatida kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va uning infratuzilmasini shakllantirishning nazariy hamda amaliy jihatlarini ko'rib chiqiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – kichik biznes subyektlari faoliyati uchun zarur bo'lgan tashkiliy, iqtisodiy va institutsional shart-sharoitlarni tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iboratdir. Mazkur yondashuv nafaqat kichik biznesning barqaror o'sishini, balki mintaqaviy sanoatning raqobatbardoshligini ham ta'minlashga xizmat qiladi.

MSVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznesni rivojlantirish va u bilan bog'liq institutsional islohotlar masalasi xalqaro va milliy miqyosda ko'plab olimlar e'tibor markazida bo'lib kelmoqda. Xususan, J. Schumpeter innovatsion faoliyatni iqtisodiy o'sishning muhim drayveri sifatida baholab, kichik tadbirkorlikni iqtisodiy tizimning yangilanishi va moslashuvchanligida hal qiluvchi omil deb hisoblagan. M. Porter esa kichik korxonalar orqali mahalliy raqobat muhitining kuchayishi, tarmoq innovatsiyalarining shakllanishi va bozor mexanizmlarining faollashuvini asoslab bergan [1].

Hududiy rivojlanish nazariyalarida esa sanoatning joylashuvi va tarmoqlararo mutanosiblik masalalari muhim o'rin egallaydi. A. Marshall tomonidan ishlab chiqilgan "sanoat aglomeratsiyasi" konsepsiyasida hududlarda sanoat korxonalarining bir joyda to'planishi ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishi va raqobatbardoshlikni oshirishi ta'kidlanadi [2]. M. Porter tomonidan ilgari surilgan "klaster nazariyasi"da esa hududiy klasterlashuv sanoat samaradorligini oshirish, innovatsiyalarni rag'batlantirish va yangi ish o'rinlari yaratishning muhim mexanizmi sifatida talqin qilinadi [3].

Xorijiy adabiyotlarda esa sanoat rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari, xususan, "Sanoat 4.0" kontsepsiyasi, raqamli transformatsiya va yashil iqtisodiyot omillari keng yoritilgan (Klaus Schwab, OECD hisobotlari va boshqalar). Bu yondashuvlarda sanoatning barqaror rivojlanishi uchun yuqori texnologiyalarni joriy etish, innovatsion mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish va ekologik omillarga e'tibor qaratish ustuvor vazifa sifatida ko'rsatiladi [4].

O'zbekistonlik tadqiqotchilar orasida G' Rahimov, S. G'ulomov va A. Ismoilov kabi olimlar kichik biznesni qo'llab-quvvatlash, tadbirkorlik muhiti barqarorligini ta'minlash, infratuzilma rivoji va normativ-huquqiy islohotlar tahliliga alohida e'tibor qaratganlar [5,6,7,8]. Jumladan, S.G'ulomov "O'zbekistonda kichik biznesni rivojlantirishda islohotlar tizimi" nomli maqolasida tartibga solish mexanizmlarining soddalashtirilishi va "bir darcha" tamoyili asosida xizmatlar ko'rsatishning afzalliklari yoritilgan. Mahalliy olimlardan K.X. Abdurahmonov, M.G. Pardayev, S.Salayev, R.I.Nurimbetov, A.Abdullayev va boshqa iqtisodchi olimlarning ishlarida hududiy sanoat tarmoqlarining transformatsiyasi, ishlab chiqarish salohiyatini oshirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish masalalari chuqur o'rganilgan [9]. Ularning tadqiqotlarida, xususan, kichik biznesning sanoatdagi o'рни, davlat tomonidan yaratilayotgan imtiyozlar va infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari tahlil qilinadi.

Mahalliy amaliy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kichik biznesning sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi tobora ortib bormoqda va u hududiy iqtisodiy o'sishning muhim omiliga aylanmoqda. Xususan, Xorazm viloyati misolida olib borilgan kuzatuvlar kichik biznesning qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, qurilish materiallari ishlab chiqarish va yengil sanoat tarmoqlarida faolroq ekanini ko'rsatadi. Shunday qilib, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishidagi tendensiyalarini o'rganishda klassik iqtisodiy nazariyalar, klasterlashuv yondashuvlari va mahalliy olimlarning tadqiqotlarini kompleks qo'llash zarurligini ko'rsatmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda mintaqaning sanoat rivojlanish tendensiyalari va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashda ilmiy-tahliliy yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi quyidagi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi: statistik tahlil usullari, dinamik tahlil, taqqoslash usuli, hududiy tahlil va shu bilan birga, metodologiya doirasida mahalliy va xorijiy olimlarning nazariy qarashlari hamda ilg'or ilmiy yondashuvlar (sanoat klasterlashuvi, raqamli transformatsiya, barqaror rivojlanish konsepsiyalari) kompleks ravishda qo'llanildi.



TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston va uning hududlarida amalga oshirilayotgan barcha islohotlar, avvalo, iqtisodiyot va aholini real daromadlari hamda turmush farovonligini oshirishga qaratilgandir. Ushbu islohotlarni ustuvor yo'nalishlaridan biri kichik biznes subyektlarini rivojlantirgan holda aholining o'rta qatlamini shakllantirish hisoblanadi. Biroq tadbirkorlik va kichik biznesning taraqqiyotini ta'minlash uchun ular faoliyatini tashkil qilish bilan bog'liq infratuzilmani shakllantirish talab qilinadi. Infratuzilmani rivojlantirish hamda bozor tizimiga moslash bo'yicha ko'plab chora-tadbirlar samarali amalga oshirilmoqda, bunda hukumatimiz tomonidan huquqiy asoslarni shakllantirish hamda takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar roli ancha katta hisoblanadi. Shuningdek, so'nggi yillarda infratuzilma masalasini tadqiq qilish bo'yicha turli davlat grantlari ajratilmoqda va ular doirasida ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda [10].

Tadqiqot ishi doirasida amalga oshirilgan tahlil natijalaridan ma'lum bo'lishicha, mamlakat va uning hududlari, shuningdek, iqtisodiyot tarmoqlari kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha ko'plab amaliy ishlar qilingan bo'lishiga qaramasdan, kichik biznes subyektlari rivojini ta'minlash uchun zaruriy infratuzilma talab darajasida deyish qiyin. Ilmiy adabiyotlardan ma'lumki, kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari faoliyati uzluksizligini ta'minlovchi bozor infratuzilmasini asosiy qismi bu biznes va tadbirkorlik infratuzilmasi hisoblanadi.

Infratuzilmaning mazkur shaklini rivojlantirmasdan turib, mamlakatda bozor faoliyatini samarali tashkil qilish mumkin emas. Chunki mazkur infratuzilmaning asosiy maqsadi "bozor infratuzilmasi" tushunchasi bilan bevosita bog'liqdir. Sababi davlatda amalga oshirilayotgan islohotlarning negizida bozor mexanizmini rivojlantirish masalasi qo'yilgan bo'lib, bu bozor iqtisodiyotini asosiy maqsadi hisoblanadi.

KICHIK BIZNESNING INFRATUZILMASINI ASOSIY VAZIFALARI

- kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari bozor sharoitida samarali faoliyat olib borishlari uchun mavjud imkoniyatlarini o'rganish;
- barcha bozor qatnashchilari, ularning manfaatlaridan kelib chiqqan holda barcha subyektlar uchun samarali bo'lgan tizimni ishlab chiqish;
- bozor sohasidagi tizimlarning ixtisosligini amalga oshirish va ular faoliyatini ta'minlash;
- bozor qatnashchilari faoliyatini operativ va samarali tashkil qilish bo'yicha asosiy institutlar va xizmatlarni yo'lga qo'yish;
- bozor munosabatlarini tashkiliy rasmiylashtirish uchun huquqiy, yuridik va iqtisodiy nazorat shakllarini yengillashtirish;
- bozor talabi va iste'mol tovarlarni baholashning ko'chmas mulk, ishlab chiqarish vositalari, ishchi kuchi, buning uchun bozor birjasi, marketing va boshqa mexanizmlardan foydalangan holda tartibga solish;
- ishlab chiqarish va xizmatlarning umumiy xarajatlarni kamaytirish uchun bozor konyukturasidan kelib chiqqan holda mahsulot ishlab chiqarish hajmini tartibga solish.

1-rasm. Kichik biznes infratuzilmasining asosiy vazifalari

Tadbirkorlik subyektlari faoliyati samaradorligi hamda davomiyligi, uzluksizligi ishlab chiqarilgan tovarlar realizatsiyasi bilan bog'liq hisoblanadi. Buning uchun esa tovar harakatining tashkil qilishning samarali infratuzilmasi shakllantirilgan bo'lishi talab qilinadi. Bundan tashqari, korxona faoliyatining turli bosqichlaridagi samaradorligi bevosita infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi bilan bevosita bog'liq. Buni aniqroq ochib berish maqsadida kichik biznesning infratuzilmasini asosiy vazifalariga to'xtalib o'tildi (1-rasm).

Mazkur vazifalarini amalga oshirish uchun kichik biznes subyektlari faoliyatini takomillashtirish, ularni qo'llab-quvvatlash bo'yicha turli mexanizmlarni ishlab chiqishda qatnashuvchi mutaxassislarda maxsus

bilim, ko'nikma, salohiyat hamda mahorat bo'lishi talab qilinadi. Shu ma'noda kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining funksiyalarini o'rganish, ularni nazorat qilish maqsadga muvofiqdir. Kichik biznes subyektlarining funksiyalari nuqtayi nazaridan yirik biznesdan farq qilishi, ular funksiyalarini tadqiq qilgan holda takomillashtirish yo'nalishlarini ishlab chiqish, bunda miqdoriy usullardan foydalanish hozirgi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi. Demak, kichik biznes funksiyalari umumiy menejment funksiyalari bilan mos holda o'rganiladi. Shunday qilib, kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarning asosiy funksiyalari quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi (2-rasm).



2-rasm. Kichik biznes korxonalarida infratuzilma funksiyalarini tasniflanishi

Palata joylarda katta ishlarni amalga oshiradi, ya'ni infratuzilma tarmoqlarini rivojlantirish uchun chora-tadbirlar ishlab chiqadi [11].

Tadqiqotlarimiz natijalariga ko'ra, sanoat sohasida faoliyat olib borayotgan kichik biznes subyektlarining miqdor jihatdan ijobiy natijalarga erishish ta'minlanayotgan bo'lishiga qaramasdan, nisbiy va sifat ko'rsatkichlaridagi salbiy jihatlar soha rivojini ta'minlash, mavjud infratuzilmani yanada takomillashtirish bilan bog'liq muammolar mavjudligidan dalolat bermoqda. Kichik biznes subyektlari rivojini ta'minlashdagi muhim muammolardan biri bu ishlab chiqarilayotgan sanoat tovarlari sifati talab darajasida emasligidir. Natijada, ishlab chiqarilgan tovarlarning nafaqat jahon bozorida, balki mahalliy bozordagi raqobatbardoshligini ta'minlash muammosi kelib chiqmoqda.

Umuman, sanoat sohasidagi kichik biznes subyektlari ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli darajada deb bo'lmaydi. Sohadagi o'zgarishlar, tadqiqot natijalariga tayangan holda shuni ta'kidlashimiz mumkinki, kichik biznes subyektlari faoliyatining samaradorligini oshirish uchun quyidagi muammolar hal qilinishi lozim [12]:

birinchidan, katta miqyosda yaratilgan infratuzilma obyektlarini yuqori darajada bilim, ko'nikma, tajriba hamda boshqarish mahoratiga ega bo'lgan kadrlar bilan ta'minlash. Buning uchun yangi mutaxassisliklarni joriy qilish, xorijiy universitetlar bilan ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirish;

ikkinchidan, kichik biznes subyektlarini rivojlantirishda muhim muammolardan biri bu ularni moliyalashtirish bilan bog'liq hisoblanganligi sababli to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishdagi kamchiliklarni bartaraf etish kichik biznes, jumladan, sanoat sohasidagi kichik tadbirkorlik subyektlari rivojining muhim omili hisoblanadi.



Fikrimizcha, kichik biznes subyektlarining xalqaro moliyaviy institutlar bilan munosabatlarini rivojlantirish, ularga biznes loyihalar tayyorlashda ko'maklashuvchi maxsus konsalting xizmatlarini ko'rsatuvchi xususiy sektorning rivojini ta'minlash lozim;

uchinchidan, kichik biznes va tadbirkorlik tizimini boshqarish mexanizmini takomillashtirish talab qilinadi, chunki hozirda amal qilayotgan tizim ma'lum darajada oldingi rejali iqtisodiyotning unsurlariga bog'lanib qolmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri sifatida mustaqil qaror qabul qilish hamda o'zini o'zi boshqarish, tadbirkorlik tamoyillaridan keng foydalanishga qodir bo'lgan kadrlarning yetishmasligi hisoblanadi. Shu sababdan kichik biznes subyektlari infratuzilmasi bilan bog'liq tashkilotlarga xodimlarni qabul qilishning xalqaro standartlarini joriy qilish lozim. Fikrimizcha, oliy ta'lim muassasasini bitiruvchilaridan xuddi kirish imtihonidagi kabi test olgan holda belgilangan me'yordan yuqori ball to'plagan talabalarni bilim darajasidan kelib chiqqan holda ish o'rinlariga joylashtirilsa, keltirib o'tilgan muammolarning yechimi ta'minlangan bo'lardi;

to'rtinchidan, kichik biznes infratuzilmasini ta'minlovchi subyektlar iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarda bozor qonunlari hamda o'zgarishlarini o'rganishga e'tibor qaratishmaydi, jumladan, tashkiliy, yuridik va moddiy-texnika ta'minoti va xizmatlarni amalga oshirishda mavjud sharoitni hisobga olinmasligi bu borada amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorligini pasaytirishga xizmat qilmoqda;

beshinchidan, kichik biznes subyektlari uchun zaruriy infratuzilmani kengroq miqyosda tashkil qilish. Jumladan, infratuzilma xizmatlarini xalqaro darajada tashkil qilish va xorijiy davlatlarda sho'ba korxonalari, savdo uylari va vakolatxonalarni tashkil etish lozim;

oltinchidan, shakllantirilgan infratuzilma kichik korxonalarda ishlab chiqarish jarayonidagi qo'shilgan qiymat zanjiri bo'yicha harakatlarning barqarorligini ta'minlashga xizmat qilishi va bu jarayonda qatnashuvchi subyektlar orasidagi hamkorlikni ta'minlashda ahamiyatli yo'nalishlarni ishlab chiqishi lozim. Chunki rivojlangan xorijiy davlatlarda bunday tajribalardan keng qo'llaniladi;

yettinchidan, infratuzilmani asosiy zamonaviy jihatlaridan biri innovatsion jarayonlarni rivojlantirish bo'lishi lozim. Ya'ni, kichik biznes subyektlari faoliyatiga innovatsiyalarni jalb qilish bo'yicha amaliy maslahat beruvchi hukumat tashkilotlari hamda xususiy sektor rivojini ta'minlash. Ular orasida raqobatni shakllantirgan holda ular samaradorligini baholab shunga mos ravishda ularda moddiy ta'minotni ta'minlash lozim.

Demak, kichik biznes subyektlarini tartibga solish, infratuzilma institutlarining asosiy vazifasi hisoblanadi, buning uchun yuqorida belgilangan muammolarning hal qilinishi nafaqat o'rta sinfni shakllantirish va ular ulushini oshirish, balki mamlakatda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qiladi. Taraqqiyotning hozirgi bosqichida infratuzilmani asosiy turlaridan biri innovatsion infratuzilma hisoblanadi [13]. Chunki iqtisodiy barqarorlik va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlashda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish muhim yo'nalishlardan bo'lib qolmoqda. Innovatsion infratuzilma o'z ichiga innovatsion faoliyatga moddiy-texnik, moliyaviy, tashkiliy-metodik, axborot, maslahat va boshqa turdagi xizmat ko'rsatishni ta'minlovchi subyektlar, resurslar va vositalar majmuasini qamrab oladi.

Kichik biznes subyektlarining innovatsion faoliyatini oshirish uchun innovatsion siklning barcha tarkibiy qismlari va bo'g'inlarini samarali shakllantirish zarur. Buning asosiy yo'nalishlaridan biri innovatsion jarayonida bevosita ishtirok etuvchi subyektlarning o'zaro hamkorlik mexanizmini ishlab chiqishidir. Shu munosabat bilan innovatsion infratuzilmani shakllantirishi va uning rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish zarurati paydo bo'ladi [14].

Innovatsion infratuzilmani shakllantirish xorij tajribasini tizimlashtirish uning ayrim elementlarini yaratishning bazaviy modellarning belgilab olish va ulardan kichik biznes subyektlari faoliyati imkoniyatlarini aniqlashga imkon beradi.


Bugungi kunda ilm-fan sohasini rivojlantirishning tashkiliy iqtisodiyot mexanizmini takomillashtirish muammosi eng dolzarb masalalardan biri bo'lib, uning hal qilinishi ilm-fan sohasini bevosita ishlab chiqarish kuchiga aylanishi, ilmiy tadqiqotlar natijalarini ishlab chiqarishga tatbiq etishini nazarda tutadi [15].

Mavjud innovatsion infratuzilmani amal qilish muammolari tahlili uning ko'rsatkichlari hozirgi holati innovatsion korxonalar ehtiyojlariga to'liq javob bermaydi. Bu esa innovatsion faoliyatni takomillashtirishiga qulay shart-sharoitlar yaratib berishini ta'minlovchi infratuzilmaviy tizimni rivojlantirishni taqozo etmoqda⁴⁵.

Yuqorida keltirib o'tilgan tadqiqot natijalariga asoslangan holda shuni ta'kidlash mumkinki, innovatsiya infratuzilmasi xar bir davlatning infratuzilma tizimini asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. U nafaqat iqtisodiyotdagi yirik korxonalar, balki kichik biznes subyektlari va tadbirkorlikni rivojlantirish sifatini raqobatbardosh, yuqori texnologiya va qo'shimcha qiymat, eksportga yo'naltirilgan mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlaydi. Bundan ko'rinadiki, mamlakatimiz sanoat sohasidagi kichik biznes subyektlari rivojini ta'minlashdagi qator muammolarning yechimi sifatida innovatsiya infratuzilmasini qarash mumkin. Shuning uchun bu borada keng tadqiqotlar va izlanishlarni olib borishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Mamlakatimiz va uning hududlarida sanoat sohasidagi kichik biznes subyektlari uchun innovatsiya infratuzilmasini shakllantirishning quyidagi ko'rinishga ega bo'lgan strukturasini taklif qilib o'tmoqchimiz (3-rasm).

SANOAT SOHASIDAGI KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI UCHUN INNOVATSIYA INFRATUZILMASI



3-rasm. Sanoat sohasidagi kichik biznes subyektlari uchun innovatsiya infratuzilmasining innovatsion g'oyalar elektron bazasi

Bu ko'rinishdagi infratuzilmani rivojlantirish sanoat sohasidagi kichik biznes subyektlari faoliyatiga innovatsion g'oyalarni tatbiq etish, ular tomonidan yaratilayotgan mahsulotlarni xalqaro standartlarga moslashtirish, ularning ichki va tashqi bozordagi raqobatbardorshligini oshirishga xizmat qiladi.

Bu ko'rinishdagi struktura universitetlar, ilmiy-tadqiqot institutlari orasidagi bog'liqlikni kuchaytirishga yordam beradi. Jumladan, innovatsion g'oyalar elektron bazasining tashkil qilinishi ma'lum yo'nalishda ilmiy tadqiqot olib borayotgan izlanuvchilar bilan sohada faoliyat ko'rsatayotgan biznes subyektlarini uchrashishiga xizmat qiladi. Bu yerda innovatsion elektron bazada ro'yxatdan o'tgan holda g'oyalar taklif qilinadi va ushbu g'oya bilan qiziquvchilar ham ro'yxatdan o'tgan holda o'z login paroli bilan kirishadi. Avtomotik ravishda g'oyaning bazaga tashlangan vaqti belgilaniladi va shu muddatdan boshlab, ushbu g'oyaning egasi sifatida bazaga tashlangan shaxs qaraladi va ushbu g'oya ko'rib chiqiladi. Agarda ushbu g'oya innovatsion g'oya sifatida tan olinsa, unga mualliflik huquqi beriladi, aks holda, ushbu g'oya rad etiladi. Ushbu jarayonni nafaqat g'oyalarni taklif qiluvchilar, balki ulardan foydalanuvchi sanoat korxonalari, moliyaviy institutlar ham kuzatib borishi mumkin.

Shu bilan birga, har bir subyekt alohida ham munosabatga kirishi mumkin, ammo unda ularning g'oyalarini boshqalar tomonidan o'zlashtirilishi kafolatlanmaydi. Bundan tashqari, g'oya muallifi bilan undan foydalanuvchi bir-birini topishi uchun ko'p vaqt talab qilinadi va g'oya muallifi foydalanuvchiga o'z g'oyasini asoslab berishi bilan bog'liq tashkiliy masalalarga ko'proq vaqt ajratishiga to'g'ri keladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida keltirib o'tilgan tahlil natijalariga asoslangan holda shuni ta'kidlash mumkinki, kichik biznes subyektlari faoliyati samaradorligi va barqarorligini ta'minlashda infratuzilmaning roli juda yuqori hisoblanadi. Bundan tashqari, nazariya bilan amaliyotdagi uyg'unlikni ta'minlanmaganligi sanoat sohasidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni ham ichki, ham tashqi bozordagi raqobatbardoshligini pastligicha qolishiga sabab bo'lmoqda. Chunki butun dunyoda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish masalasi dolzarblik kasb etayotgan davrda nazariya va amaliyotni uyg'unligini ta'minlamasdan turib, rivojlanishi mumkin emas. Ammo ushbu uyg'unlikni ta'minlash uchun zaruriy infratuzilmani shakllantirish masalasiga ham e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Shu sababli fikrimizcha, innovatsion g'oyalar elektron bazasini shakllantirish bu yo'nalishdagi muammolarni bartaraf etgan holda sanoat sohasidagi kichik biznes subyektlari faoliyatiga innovatsion g'oyalarni joriy qilishni tezlashtirishga xizmat qiladi.

Mintaqa sanoatida kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va uning infratuzilmasini shakllantirish iqtisodiy barqarorlik va raqobatbardoshlikni ta'minlashning muhim omillaridan biridir. Kichik biznes subyektlari ishlab



chiqarish hajmining ortishi, yangi ish o'rinlarining yaratilishi, innovatsion g'oyalarning joriy etilishi hamda mahalliy byudjet daromadlarining ko'payishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Biroq, kichik biznesning samarali faoliyat yuritishi uchun tashkiliy, iqtisodiy va institutsional shart-sharoitlarni yanada rivojlantirish talab etiladi. Xususan, ishlab chiqarish infratuzilmasining rivojlanishi, logistika markazlari, texnoparklar va innovatsion klasterlarning tashkil etilishi, moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining takomillashuvi kichik biznesning barqaror o'sishini ta'minlaydigan asosiy yo'nalishlardir.

Shuningdek, davlat tomonidan yaratilayotgan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini samarali ishlatish, mahalliy resurslardan oqilona foydalanish hamda hududiy iqtisodiy siyosatning barqarorligini mustahkamlash kichik biznesning sanoat sohasidagi o'rni va ahamiyatini yanada oshiradi.

Umuman olganda, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va uning infratuzilmasini shakllantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish mintqa sanoatini modernizatsiya qilish, innovatsion rivojlanishni jadallashtirish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim garovi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Marshall, A. (1920). Principles of Economics (8th ed.). London: Macmillan.
2. Porter, M.E. (1990). The Competitive Advantage of Nations. New York: Free Press.
3. Rostow, W.W. (1960). The Stages of Economic Growth: A Non-Communist Manifesto. Cambridge: Cambridge University Press.
4. Drucker, P. (1985). Innovation and Entrepreneurship: Practice and Principles. New York: Harper & Row.
5. Schwab, K. (2016). The Fourth Industrial Revolution. Geneva: World Economic Forum.
6. Abduraxmonov, Q.X.. Sanoatni modernizatsiya qilish jarayonida rivojlanish tendensiyalari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, №2(38), 2020, 45–52.
7. Gulyamov S.S. i dr. Tadbirkorlik va kichik biznes. O'quv qo'llanma. -T.: TDIU, 1996.
8. Abdullayev, A. J. Iqtisodiyot rivojlanishida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli (Toshkent viloyati misolida). Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali, 2(00040), 2019, 1-13.
9. Karimov, A. O'zbekiston iqtisodiyotida kichik biznesning o'rni. Iqtisodiyot va ta'lim, 9(3), 2018, 45-52.
10. Ismoilov, M. Rivojlangan davlatlarda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash tajribasi va O'zbekiston uchun saboqlar. Xalqaro iqtisodiyot va menejment jurnali, 11(1), 2019, 34-42.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. "Xalq so'zi", 2020 yil 30 dekabr.
12. Do'stjanov T.D., Salayev S.K. Kichik biznesning katta imkoniyatlari. -Urganch.: Xorazm, 1997.
13. Pardayev, M.G.. Hududiy iqtisodiyotda sanoat tarmoqlarini diversifikatsiya qilish muammolari. Iqtisodiyot va ta'lim, №6(73), 2019, 12–20.
14. Nurimbetov, R., Kalmuratov, B., Mirzanov, B., Beglenov, N., & Bekbosinov, A. (2024). Development Of Forecasting Indicators Of Industry Development Trends In The Republic Of Karakalpagistan. Library of Progress-Library Science, Information Technology & Computer, 44(3).
15. Nurimbetov, R. I., & Karimov, K. M. (2025). The role of innovation policy in advancing uzbekistan's textile industry: empirical evidence and strategic forecasting. Innovation Science and Technology, 1(5), 115-120.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>